



YASHIL IQTISODIYOTNING PAYDO BO'LISHI VA RIVOJLANISH TARIXIY OMILLARI

Sharapov Ma'mur Murodovich

Buxoro davlat universiteti

tayanch doktoranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17862368>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 01-dekabr 2025 yil
Ma'qullandi: 05-dekabr 2025 yil
Nashr qilindi: 09-dekabr 2025 yil

KEYWORDS

Yashil iqtisodiyot, ekologik iqtisodiyot, barqaror rivojlanish, ekologik xavfsizlik, tabiiy kapital, ekologik inqiroz, qayta tiklanuvchi energiya, yashil texnologiyalar, ekologik ong, ekologik axloq, ekologik tarbiya, global ekologik siyosat, yashil o'sish.

ABSTRACT

Mazkur maqolada XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab jadal sanoatlashuv, urbanizatsiya, tabiiy resurslardan haddan tashqari foydalanish va ekologik muvozanatning buzilishi oqibatida yuzaga kelgan ekologik-iqtisodiy muammolar tahlil qilinadi. Ushbu jarayonlar natijasida shakllangan yashil iqtisodiyot konsepsiyasining tarixiy, siyosiy, ilmiy va ekologik asoslari ilmiy manbalar asosida yoritiladi. Maqolada yashil iqtisodiyot g'oyasining evolyutsiyasi, ekologik iqtisodiyot nazariyasining rivojlanishi, barqaror rivojlanish konsepsiyasining shakllanishi hamda global ekologik siyosiy jarayonlar bilan bog'liq bosqichlar ketma-ket tahlil etilgan. Shuningdek, qayta tiklanuvchi energiya texnologiyalarining rivoji, ekologik ong va axloqning barqaror rivojlanishdagi o'rni, ekologik tarbiyaning yosh avlod ongini shakllantirishdagi ahamiyati ko'rsatib berilgan. Yashil iqtisodiyotning zamonaviy bosqichda global iqtisodiy strategiya sifatida ahamiyati, ekologik transformatsiya va texnologik yangiliklarning iqtisodiy barqarorlikka ta'siri asoslantirilgan..

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab insoniyat jadal sanoatlashuv, urbanizatsiya, resurslardan haddan tashqari foydalanish va ekologik muvozanatning buzilishi kabi global muammolarga duch keldi. Mazkur jarayonlar mavjud iqtisodiy modelning ekologik barqaror emasligini ko'rsatib, yangi konsepsiya — yashil iqtisodiyot g'oyasining shakllanishiga zamin yaratdi. Yashil iqtisodiyot faqat iqtisodiy o'sishni emas, balki ekologik xavfsizlikni, tabiiy kapitalni asrashni, resurslardan oqilona foydalanishni va ijtimoiy farovonlikni bir butun sifatida ko'rib chiqadigan tizimdir.

Ushbu maqolaning maqsadi — yashil iqtisodiyot tushunchasining paydo bo'lishiga ta'sir etgan tarixiy, siyosiy, ekologik va ilmiy omillarni tahlil qilish hamda mazkur g'oyaning shakllanish bosqichlarini ilmiy adabiyotlar asosida yoritishdir.

Yashil iqtisodiyot - bu 20-asr oxirida shakllangan iqtisodiyotning yangi yo'nalishi bo'lib, u insonning iqtisodiy faoliyatining atrof-muhitga salbiy ta'sirini kamaytirish zarurligini bildiradi va u har qanday holatda ham iqtisodiy o'sishga emas, balki iqtisodiy barqarorlikka qaratilgan, atrof-muhit uchun minimal xavf bilan kurashishga chaqiruvchi yo'nalish hisoblanadi. Ushbu yo'nalish. tarafdorlari, iqtisodiyot o'zi mavjud bo'lgan va uning bir qismi bo'lgan tabiiy muhitning bog'liq tarkibiy qismi deb hisoblashadilar. Yashil iqtisodiyot yashil texnologiyalar va loyihalarga asoslanadi. Ularning muvaffaqiyati ko'p jihatdan muhim moliyaviy oqimlarni jalb qilish qobiliyatiga bog'liq bo'ladi. Ekologik tashabbuslarni moliyalashtirishning eng istiqbolli usullaridan biri ijtimoiy mas'uliyatli investitsiyalardir. Atrof-muhitga bo'lgan zararlarni kamaytirish uchun sezilarli salohiyatga ega bo'lgan uning asosiy mexanizmi "yashil" investitsiyalar kiritishdir va bu investitsiyalarni jalb qilishda "yashil" iqtisodiyotning ahamiyati katta hisoblanadi. Yashil iqtisodiyot – ekologik xavflarni va ekologik tanqislikni kamaytirishga qaratilgan va atrof-muhitni buzmasdan barqaror rivojlanishni maqsad qilgan iqtisodiyot. U ekologik iqtisodiyot bilan chambarchas bog'liq, lekin asosan siyosiy termin sifatida foydalaniladi [1]. Yashil iqtisodiyotning nazariy ildizlari ekologik iqtisodiyotga borib taqaladi. XX asrning 1970–80-yillarida iqtisodiy rivojlanishning tabiatga ta'sirini baholashga qaratilgan yangi ilmiy yo'nalish shakllandi. Pearce, Markandya va Barbierning mashhur ishi — Blueprint for a Green Economy (1989) — ekologik iqtisodiyot g'oyalarini keng ommaga olib chiqdi. Mualliflar iqtisodiy siyosat tabiatdan kelib chiqishi zarurligini, iqtisodiy o'sishni ekologik cheklovlar bilan uyg'unlashtirish kerakligini ta'kidlashdi [2]. "Tabiiy kapital" tushunchasi ham aynan shu davrda mustahkamlandi. Meadows boshchiligidagi tadqiqotchilar "The Limits to Growth" (1972) asarida cheksiz iqtisodiy o'sish mumkin emasligini ilmiy asoslab berdi. Ularning hisoblashicha, resurslar tugashi va ekologik inqiroz global iqtisodiyotni inqirozga olib keladi [3].

1987-yilda BMT tomonidan tayyorlangan Our Common Future (Brundtland Report) barqaror rivojlanish tushunchasini global kun tartibiga olib chiqdi. Unda jamiyat, iqtisodiyot va ekologiya bir-biri bilan uzviy bog'liq tizimlar sifatida qaraldi. Mazkur hisobot yashil iqtisodiyotning poydevorini mustahkamlab, iqtisodiy siyosatda ekologik mezonlarni hisobga olish zaruriyatini ilmiy asoslab berdi [4].

1992-yil Rio-de-Janeyrodagi "Yer sammiti", 2012-yilgi Rio+20 sammiti, UNEP tomonidan 2011-yilda e'lon qilingan Towards a Green Economy hisobotlari yashil iqtisodiyot nazariyasini amaliy siyosat darajasiga ko'tardi [5]. OECD'ning Towards Green Growth (2011) hujjati esa iqtisodiy o'sishni ekologik transformatsiya bilan bog'lash bo'yicha aniq siyosiy yo'nalishlarni belgilab berdi [6]. Bu jarayonlar yashil iqtisodiyotning nafaqat ilmiy g'oya, balki global iqtisodiy strategiya sifatida shakllanishiga olib keldi.

XX asr oxiriga kelib atmosfera isishi, chiqindilar ko'payishi, suv va tuproq resurslari tanqisligi, biologik xilma-xillikning keskin kamayishi kabi muammolar jiddiy tus oldi. O'zbekiston, Markaziy Osiyo, Xitoy, AQSH va Yevropa davlatlarida ekologik tanazzul darajasi keskin o'sdi. Xususan, Aral fojiasi Markaziy Osiyoda ekologik inqirozning eng yaqqol misoliga aylandi [7]. Shu sharoitda davlatlar ekologik xavfsizlikni iqtisodiy siyosatning ajralmas qismiga aylantirishga majbur bo'ldi.

Ekologik inqirozning sabablari quyidagilardan iborat: 1. Sanoatlashtirish – ko'p miqdordagi chiqindilar, havoga zararli gazlar chiqarilishi. 2. O'rmonlarning kesilishi – karbonat angidrid gazining to'planishi va tuproq eroziyasining kuchayishi. 3. Suv resurslarining

ifloslanishi– daryo, ko'l va yer osti suvlari kimyoviy chiqindilar bilan ifloslanmoqda. 4.Yer degradatsiyasi– noto'g'ri sug'orish, pestitsidlar va ortiqcha ekin ekish yer sifatini yomonlashtiradi [8].

So'nggi yillarda global miqyosda ekologik barqarorlik masalasi iqtisodiy siyosatning ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan. Bu jarayonda yashil texnologiyalarni joriy etish orqali hududiy iqtisodiyotni ekologik transformatsiya qilish dolzarb masalaga aylanmoqda. Ayniqsa, resurslardan oqilona foydalanish, energiyatejamkorlik, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish, chiqindisiz ishlab chiqarish va bioenergiya kabi yo'nalishlar iqtisodiy barqarorlik va ekologik xavfsizlikni ta'minlashda muhim o'rin tutmoqda [9].

XXI asr boshidan boshlab qayta tiklanuvchi energiya texnologiyalari (quyosh, shamol, bioenergiya), energiya samaradorligi bo'yicha innovatsiyalar, chiqindilarni qayta ishlash, "yashil transport" tizimlari jadal rivojlandi. Bu jarayon yashil iqtisodiyotning amaliy asosini mustahkamladi. Bowen va Hepburn (2014) "yashil o'sish" texnologik modernizatsiyasiz imkonsizligini ta'kidlaydi [10].

Ekologik ong va axloq ekologik madaniyatning muhim tarkibiy qismlari hisoblanadi. Ekologik ong – bu insonning tabiat va atrof-muhit haqidagi bilimlari, ularning qadriyat sifatida qabul qilinishi va ushbu bilimlarning kundalik hayotda qo'llanilishi. Ekologik axloq esa, insonning tabiatga bo'lgan munosabati bilan bog'liq axloqiy tamoyillar va me'yorlarni o'z ichiga oladi. Bu ikki komponent jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan asosiy elementlardir. Ekologik ongni shakllantirish insonning tabiatni asrashga qaratilgan amaliy faoliyatiga asoslanadi, ekologik axloq esa ushbu faoliyatning axloqiy jihatlarini tartibga soladi. Bu jarayonlarda insonning ma'naviy rivojlanishi va axloqiy ongining kengayishi muhim ahamiyatga ega [11] Odamlarda tabiatga nisbatan munosabat keskin o'zgardi. Yashil turmush tarzi, ekologik iste'mol, energiyani tejash madaniyati shakllandi. Bu esa davlatlarning yashil siyosatini qo'llab-quvvatlashni kuchaytirdi.

Yashil texnologiyalar"ni joriy etishning institutsional asoslarini rivojlantirish. Jumladan, texnologik ehtiyojlarni baholash, ustuvor vazifalarni belgilash va eng muhim texnologiyalarni tanlash, ularni ishlab chiqish transferga ko'mak berish zarur. "Yashil texnologiyalar"ni tijoratlashtirish mexanizmlarini rivojlantirish, innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash uchun tashkiliy tuzilmalar - texnologiyalarni yetkazib berish agentliklari, texnologik biznes-inkubatorlar, texnoparklar, klasterlar yaratish lozim. 2030 yilgacha bo'lgan davrda strategiyani amalga oshirish jarayonida yalpi ichki mahsulot birligiga issiqxona gazlarining solishtirma chiqindilari 2010 yil darajasidan o'n foizga kamayadi, aholi va iqtisodiyot tarmoqlarining yuz foizga qadar zamonaviy, arzon va ishonchli elektr ta'minotidan foydalanish ta'minlanadi. Ekologik jihatdan yaxshilangan motorli yoqilg'i va avtomobil ishlab chiqarish hamda ulardan foydalanish ken- gaytiriladi, elektr transporti rivojlanad [12]. Tarixiy adabiyotlar asosida yashil iqtisodiyot rivojlanishi quyidagi bosqichlarga bo'linadi:

Yashil iqtisodiyotning shakllanish davrining 1-bosqichi 1970–1989 – yillarni o'z ichiga olib, nazariy shakllanish davri deyiladi. Bu davrda ekologik iqtisodiyot g'oyalari paydo bo'ldi. "Limits to Growth" va ekologik modellash ishlar chop etildi. "Tabiiy kapital" tushunchasi shakllandi [13].

2-bosqich 1990–2008 - yillarda barqaror rivojlanish konsepsiyasining global tan olinishi bo'ldi. Bu davrda Brundtland hisobotining qabul qilinishi. BMT ekologik dasturlarining kengayishi. Yashil siyosatning ilk shakllari paydo bo'ldi [14].

3-bosqich 2008–hozirgacha boʻlib, yashil iqtisodiyotning amaliy iqtisodiy model sifatida shakllanishi boʻldi. Bu davrda Parij kelishuvi, global iqlim siyosati. Qayta tiklanuvchi energiya investitsiyalarining oʻsishi. Raqamli texnologiyalar bilan uygʻun yashil transformatsiya [15].

Ekologik tarbiyaning bolalar va oʻquvchilar ongini shakllantirishdagi ahamiyati beqiyos. Yosh avlodga tabiatni sevish, uni asrash va himoya qilishning muhimligini singdirish kelajak jamiyatning ekologik barqarorligini taʼminlashning asosiy omillaridan biridir. Bolalar yoshida ekologik axloq va ongni shakllantirish orqali ularda tabiiy resurslarga nisbatan ehtiyotkorlik va hurmat hissi paydo boʻladi. Maktablarda ekologik tarbiya boʻyicha maxsus tadbirlar oʻtkazish, masalan, daraxt ekish, chiqindilarni qayta ishlash boʻyicha aksiyalar va ekologik viktorinalar, bolalarning ekologik masʼuliyatni ongli ravishda qabul qilishiga yordam beradi. Bundan tashqari, oilaviy ekologik tarbiya jarayoniga jalb etilgan bolalar tabiatga boʻlgan masʼuliyatni oila va jamiyat doirasida kengroq anglash imkoniyatiga ega boʻladila

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, Yashil iqtisodiyotning shakllanishi — tasodifiy emas, balki XX–XXI asrlarda yuz bergan chuqur ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy inqirozlar natijasida vujudga kelgan zaruratdir. Uning nazariy poydevori ekologik iqtisodiyot, tabiatning cheklanganligi, barqaror rivojlanish konsepsiyasidan iborat boʻlsa, amaliy rivojlanishi xalqaro siyosiy tashabbuslar, texnologik taraqqiyot va global ekologik xavfsizlik talablari bilan bogʻliq. Bugungi kunda yashil iqtisodiyot — iqtisodiy oʻsishning sifat jihatidan yangi modeli boʻlib, inson farovonligi va ekologik barqarorlikni uygʻunlashtirishga xizmat qiladi. Yaqin kelajakda ham u global iqtisodiy strategiyaning asosiy yoʻnalishlaridan biri boʻlib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sobirjonova M.S. Rivojlanayotgan va rivojlangan mamlakatlarda yashil iqtisodiyotga otish konsepsiyasi geografiyasi. "Экономика и социум" jurnali, №2(129)-2 2025
2. Pearce, D., Markandya, A., Barbier, E. Blueprint for a Green Economy. — London: Earthscan, 1989. — 192 p.
3. Meadows, D. H., Meadows, D. L., Randers, J., Behrens, W. The Limits to Growth. — New York: Universe Books, 1972. — 205 p.
4. United Nations. Our Common Future (Brundtland Report). — New York: Oxford University Press, 1987. — 383 p.
5. UNEP. Towards a Green Economy. — Nairobi, 2011. — 310 p.
6. OECD. Towards Green Growth. — Paris: OECD Publishing, 2011. — 143 p.
7. Karimov, A. Yashil iqtisodiyot: nazariya va amaliyot. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2021. — 256 b
8. Xusanova S. (2025). Ekologik inqiroz tushunchasi va uni oldini olishga doir chora tadbirlar. Наука и инновация, 3(15), 147–150.
9. Ergashaliyeva Raʼnoxon Farxodjon qizi. Yashil texnologiyalarni joriy etish orqali hududiy iqtisodiyotni ekologik jihatdan transformatsiyalash. "RAQAMLI IQTISODIYOT" ILMIY-ELEKTRON JURNALI | 11-SON
10. Bowen, A., Hepburn, C. "Green Growth: An Assessment" // Oxford Review of Economic Policy. — 2014. — Vol. 30(3). — pp. 407–422.
11. Baugher J. E., Osika W., Robert K. H. Ecological consciousness, moral imagination, and the framework for strategic sustainable development //Creative Social Change. – Emerald Group Publishing Limited, 2016. – C. 119-142.

12. https://www.researchgate.net/publication/301638196_The_concept_of_sustainable_development_as_a_methodological_base_to_form_strategy_for_enterprises_of_oil_complex
13. Xoldorov, B., Qodirov, R. Barqaror rivojlanish konsepsiyasi va ekologik iqtisodiyot. — Toshkent: Universitet, 2019. — 184 b.
14. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy Taraqqiyot vazirligi. Yashil iqtisodiyotga o'tish bo'yicha milliy strategiya 2019–2030. — Toshkent, 2019. — 72 b.
15. To'xtaboyev, M. "Yashil iqtisodiyotning shakllanish omillari va istiqbollari" // Ijtimoiy-gumanitar fanlar jurnali. — 2022. — №4. — B. 45–53.
16. Jacobs, M. The Green Economy. — Vancouver: UBC Press, 1993. — 320 p.

